



## MILLIY CHOLG‘U ASBOBLARINI YOSHLAR ORASIDA TARG‘IB QILISH VA ULARNING MA‘NAVIY TARBIYADAGI O‘RNI

*Ashirova Laziza Shuxrat qizi,*

*Guliston Davlat Pedagogika Instituti*

*Musiqqa ta‘limi yo‘nalishi o‘quvchisi*

[Lazizaashirova327@gmail.com](mailto:Lazizaashirova327@gmail.com) +998772881305

**Annotatsiya.** Ushbu maqola o‘zbek milliy cholg‘u asboblarining tarixiy ahamiyati, ularning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni hamda milliy musiqa merosini yoshlar orasida targ‘ib qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, milliy cholg‘u asboblarini rivojlantirish va yoshlar orasida ommalashtirishning samarali usullari haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Milliy musiqa, cholg‘u asboblari, yoshlar tarbiyasi, madaniyat, musiqa ta‘limi, milliy meros, ma‘naviyat, milliy qadriyatlar, san‘at tarbiyasi, musiqa madaniyati.

**Аннотация.** В данной рассматривается историческое значение узбекских национальных музыкальных инструментов, их роль в образовании молодежи и популяризации национального музыкального наследия среди молодежи. Также представлены идеи об эффективных методах развития и популяризации национальных музыкальных инструментов среди молодежи.

**Ключевые слова:** Национальная музыка, музыкальные инструменты, воспитание молодёжи, культура, музыкальное образование, национальное наследие, духовность, национальные ценности, художественное воспитание, музыкальная культура.

**Abstract.** This article discusses the historical significance of Uzbek national musical instruments, their role in the education of young people, and the promotion of national musical heritage among young people. It also presents ideas on effective



*methods for the development and popularization of national musical instruments among young people.*

**Keywords:** *National music, musical instruments, youth education, culture, music education, national heritage, spirituality, national values, art education, musical culture.*

**KIRISH.** Har bir xalqning o'ziga xos madaniyati, urf-odatlari va san'ati mavjud. Shu jumladan, musiqa san'ati ham milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbek xalqining boy musiqa merosi asrlar davomida shakllanib, bugungi kungacha yetib kelgan. Bu meros tarkibida milliy cholg'u asboblari alohida o'rin tutadi. Doira, dutor, tanbur, rubob, g'ijjak, karnay-surnay kabi cholg'u asboblari xalqimizning qadimiy san'atini namoyon etadi. Hozirgi globallashuv davrida yoshlar ko'proq zamonaviy musiqa yo'nalishlariga qiziqish bildirmoqda. Bu esa ba'zan milliy musiqa va cholg'u asboblariga bo'lgan e'tiborning kamayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham milliy cholg'u asboblarini yoshlar orasida keng targ'ib qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu orqali nafaqat milliy san'at rivojlanadi, balki yoshlarning estetik didi, milliy qadriyatlariga hurmati ham shakllanadi.

O'zbek milliy cholg'u asboblari juda qadimiy tarixga ega, ularning ayrimlari bir necha asrlar davomida xalqimiz hayotida muhim rol o'ynab kelgan. Masalan, dutor va tanbur kabi asboblar qadimdan xalq qo'shiqlari va maqomlarni ijro etishda ishlatilgan. Doira esa bayram va marosimlarda keng qo'llanilgan.

Milliy cholg'u asboblari nafaqat musiqa yaratish vositasi, balki xalqning ruhiyati va madaniyatini ifodolovchi ramz hisoblanadi. Har bir asbobning o'ziga xos ovozi va ijro uslubi mavjud. Bu esa milliy musiqaning betakrorligini ta'minlaydi.

Tarixiy manbalarda ham milliy cholg'u asboblari haqida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Ular saroy marosimlarida, xalq bayramlarida va turli tantanalarda ishlatilgan. Demak, milliy cholg'u asboblari xalqimiz tarixining ajralmas qismidir. Yoshlar tarbiyasida musiqa san'ati muhim ahamiyatga ega. Musiqa insonning ruhiy olamiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, estetik didini rivojlantiradi



va ma'naviy tarbiyasiga xizmat qiladi. Ayniqsa milliy musiqa hurmat, yoshlarni o'z xalqining madaniyati va tarixiga hurmat ruhida tarbiyalaydi.

Milliy cholg'u asboblari yoshlar orasida targ'ib qilish madaniy merosni saqlash va yosh avlodning ma'naviy olamini boyitishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ushbu sohada muayyan muammolar kuzatilsa-da, ularni bartaraf etish bo'yicha tizimli yechimlar amalga oshirilmoqda. Bunda global musiqa sanoati va elektron yo'nalishlarning (pop, rok, DJ-lik) yoshlar qiziqishlarini ko'proq jalb qilishi, musiqa darslarida faqat nazariy va klassik usullardan foydalanish yoshlar uchun qiziqarsiz tuyulishi, maktab va san'at muassasalarida sifatli va arzon milliy cholg'u asboblari (dutor, doira, rubob) yetarli emasligi, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda milliy cholg'u ijrochiligining zamonaviy formatda (masalan koverversiyalar) kam yoritilishi kabilardir.

Yoshlar orasida milliy musiqamizga, milliy cholg'u asboblari hurmatni oshirishda, majburiy tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga ko'ra, maktab o'quvchilari kamida bitta milliy cholg'u asbobini chalishni o'rganish belgilangan qarorni to'liq bajarilishi, musiqa darslarida raqamli va internet texnologiyalarini an'anaviy usullar bilan uyg'unlashtirish, milliy cholg'ularni, estrada, jazz va jahon musiqa janrlari bilan sintez qilish orqali yoshlar didiga mos yangi asarlar yaratish, milliy cholg'u ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkil etish, yosh ijrochilar uchun stipendiyalar va "startup" loyihalarini moliyalashtirish, "Maqom" va boshqa xalq ijrochiligi yo'nalishlarida yoshlar uchun maxsus respublika va xalqaro tanlovlar muntazam o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Milliy cholg'u asboblari o'rganish yoshlarning ijobiy qobiliyatini ham rivojlantiradi. Musiqa bilan shug'ullangan yoshlar sabr-toqatli, intizomli va maqsadga intiluvchan bo'lib ulg'ayadi. Shuningdek, jamoa bilan ijro etish ularda hamkorlik ko'nikmalarini shakillantiradi. Shu sababli maktab va oliy ta'lim muassasalarida milliy musiqa va cholg'u asboblari o'rganishga katta e'tibor qaratish zarur.

Milliy cholg'u asboblari yoshlar orasida targ'ib qilish uchun turli usullardan foydalanish mumkin. Eng avvalo, ta'lim tizimida musiqa fanini samarali



tashkil etish muhim hisoblanadi. Maktablarda o'quvchilarga milliy cholg'u asboblari haqida nazariy va amaliy bilimlar berilishi kerak.

Shuningdek musiqa to'garaklarini tashkil etish ham katta ahamiyatga ega. Bunday to'garaklarda yoshlar turli cholg'u asboblarida ijro etishni o'rganadilar. Bu esa ularning qiziqishini yanada oshiradi.

Madaniyat tadbirlar, festivallar va tanlovlar ham milliy cholg'u asboblarini targ'ib qilishning samarali vositasidir. Bunday tadbirlarda yosh ijrochilar o'z mahoratini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bundan tashqari, televideniya va internet orqali ham milliy musiqani keng targ'ib qilish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda milliy cholg'u asboblari haqida videolar, konsertlar va mahorat darslari joylashtirish yoshlarning qiziqishini oshiradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda milliy musiqa san'atini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Turli madaniyat markazlar, san'at maktablari va konservatoriyalarda milliy cholg'u asboblari o'qitilmoqda.

Kelajakda milliy cholg'u asboblarini qo'llab-quvvatlash zarur. Ularni xalqaro festivallarga jalb qilish, konsertlar tashkil etish va professional ta'lim berish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek milliy musiqa va zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish ham muhim yo'nalishlardan biridir. Bu orqali milliy cholg'u asboblari yangi shaklda rivojlanishi mumkin.

**XULOSA.** Xulosa o'rnida aytish mumkinki, milliy musiqa asboblari shunchaki o'tmishdan qolgan yodgorlik emas, balki bugungi yosh avlodning ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi jonli merosdir. Dutorning dasta-dastasi, nayning mungli sadosi yoki tanburning falsafiy navolari yoshlar qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik va yuksak odob-axloq tuyg'ularini mustahkamlaydi.

Zamonaviy texnologiyalar asrida milliy cholg'ularimizni targ'ib qilish – yoshlarni ma'naviy qashshoqlikdan asrash va ularni o'zligiga qaytarish demakdir. Agar biz yoshlarimizning qo'lga milliy cholg'ularimizni tutqaza olsak, ularning nafaqat musiqiy didini, balki ichki dunyosini ham boyitgan bo'lamiz. Zero, milliy kuy yangragan xonadonda va u yangragan qallda yot g'oyalarga o'rin qolmaydi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch ” Toshkent, 2008.
2. I.Rajabov “O‘zbek xalq musiqa san’ati” Toshkent, 2008.
3. O.Matyoqubov “O‘zbek xalq cholg‘ulari” Toshkent, 2001.
4. O‘zbek musiqasi tarixi. Toshkent, 2006.
5. Internet manbalari va ilmiy maqolalar, 2020-2024.
6. D.Qodirov “Musiq nazariyasi asoslari” Toshkent, 2010.
7. R.Abdullayev “O‘zbek mumtoz musiqasi” Toshkent, 2008.
8. B.Yusupov “Musiq pedagogikasi” Toshkent, 2012.
9. S.To‘xtasinov “Milliy cholg‘uchilik ijrochiligi tarixi” Toshkent, 2015.
10. A.Rasulov “O‘zbek xalq qo‘shiqlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati” Toshkent, 2016.